

**EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**Azamova Sitora Ayonovna  
Shahrisabz davlat  
pedagogika instituti Ijtimoiy  
fanlar kafedrası o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda ekologik inqirozning oldini olishda aholining ayniqsa, o‘rib kelayotgan yosh avlodning ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyasi, madaniyati va ma’naviyatini hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Maqolada ekologik globallashuv sharoitida yoshlarda ekologik madaniyatni oshirishda ekologik tarbiyaning o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologiya, globallashuv, ekologik madaniyat, biosfera, ekologik ong, ehtiyoj, ekologik ta’lim, ma’naviyat, ekologik vaziyat.

Jahonda kechayotgan global o‘zgarishlar ekologik jarayonlarni avj oldirib yubordi. Bugungi kunda ekologik ta’lim va tarbiyaning mushtarak-mujassam, uzluksiz, barcha uchun tushunarli tizimini yaratish muammosi ham dolzarb bo‘lib turibdi. Kishilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash, ularning dam olishini, atrof-muhitni asrash borasidagi faoliyatini tashkil etish masalalari kun tartibida turgan eng muhim muammolardan biridir. Keng jamoatchilikni ekologik savodxon qilish ish joylari, mahalla ayniqsa ommaviy axborot vositalarining sa’y harakatlariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Buning uchun har bir gazeta va jurnal sahifalarida televideniya, radio eshittirishlarida tabiat muhofazasi va aholi salomatligini yaxshilash mavzusiga oid maxsus maqolalar chop qilib borish, joylarda va berayotgan ekologik noxush hodisalarning kelib chiqish sabablarini ko‘rsatib o‘tish zarur. Ekologik hatolar u tanbeh berish, tanqid qilish, noxush ekologik hodisalarning kelib chiqishiga sababchi bo‘lgan shaxslarning qonuniy jazolashning joriy qilish vaqti endilikda keldi. Xullas, tabiatga nisbatan shafqatsiz bo‘lganlarga matbuot, televideniya, radio, jazo organlari orqali shafqatsiz bo‘lish maqsadga muvofiq. Ekologik jihatdan tartivsiz odamni tegishli yo‘l bilan ya’ni qonun yo‘li orqali —tarbiyalash lozim. Ekologik savodxonlikni o‘rta maktabda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki maktab yoshidagi bola hayotga endi qadam qo‘yayotgan bo‘ladi. Ekologik ta’lim-tarbiya BMT va bu tashkilotning YUNESKO va YUNEP ni ham diqqat markazidagi masaladir. Mamalakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilashda, atrof tabiiy muhitni asrab-avaylash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlarni yoshlarning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois, maktab ta’limida ekologik ta’lim-tarbiyaga yanada katta e’tibor qaratilishi, maktabgacha ta’limdan boshlab bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirib borish zarur. Chunki, yoshlar ongida ekologik dunyoqarashni shakllantirmasdan va uni mastahkamlamasdan turib, ekologik barqarorlikka erishish qiyin. Ekologik ta’lim esa inson faoliyatining barcha qirralariga ta’sir eta oladigan kuchga ega bo‘lishi darkor. Ekologik ta’limda ekologik dunyoqarashni shakllantirishning eng muhim jihatlaridan biri bo‘lgan inson bilan tabiat uyg‘unligiga amal qilinishiga erishish zarur. Bundan tashqari, zamonaviy ekologik ta’lim shu jihatni e’tiborga olishi kerakki, bilim orqasidan darrov ungaishonch tug‘ilmaydi, demak, ishonchdan harakatlar kelib chiqmaydi. Ma’lum hayvon va o‘simlik turlari haqida bilim berish – bolalar ularni asrab-avaylashni boshlaydi, degani emas. Zamonaviy ta’limning vazifalaridan biri – bu, istagan yo‘nalishda vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish bo‘yicha harakatlarda mujassam topgan ekologik irodani tarbiyalash ham hisoblanadi. Tabiat muhofazasini amalga oshirishda har qanday chora-tadbirlari qo‘llash

bilan birga aholining ekologik ongini va madaniyatini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik ong, madaniyat tabiatni avaylab asraganda, unga ongli munosabatda bo’lganda, boylıklaridan me’yorida foydalanishda, noxush hodisalarning oldini olishda, eng zaruri atrof-muhit doimo toza saqlashda namoyon bo’ladi. Ekologik tarbiyalanmagan kishi tabiatni e’zozlay olmaydi. Ekologik ta’lim tarbiyaning barchasi barobar zarurdir. Atrof-muhit muhofazasida aholi ekologik ongning, madaniyatning ahamiyati – tabiat inson uchun yagona makon, u odamni turli oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim kechak, uy-joy va boshqa zaruriy buyumlar bilan ta’minlaydi. Ekologik ong – bu har bir insonning hayotiy faoliyatida atrof tabiiy muhit uning yashash makoni ekanligini aniqlash darajasi. Ekologik ongni insonni har doim ham ekologik madaniyatli deb bo’lmaydi. Chunki ekologik barqarorlik zaruriyatini anglash haqi uni inson o’z faoliyatida tadbqiq qildi, degan so’z emas. Insonlarning ona tabiatga nisbatan ekologik ongli faoliyatlari ularning ekologik madaniyatini belgilaydi. Ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirish uchun Jahon, alohida davlatlar miqyosida turli tadbirlar o’tkazilmoqda. Har bir soha mutaxassisi ekologik savodxon, madaniyatli bo’lishi va o’z faoliyatida tabiatga zarar yetkazmasligi, ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirishga xissasini qo’shish lozimdir. O’zbekiston Respublikasida ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirish sohasida ma’lum tadbirlar o’tkazilmoqda. Mamlakatimizda ekologik ta’lim-tarbiya amalga oshirishning uzluksiz konsepsiyasi ishlab chiqilga. Lekin bu borada hma kamchiliklar ham ko’p. Jumladan; O’zbekiston Respublikasining —Tabiatni muhofaza qilish to’g’risidagi qonunida ushbu masalaga ham o’rin berilgan. Ekologik axborot tizimi yashi shakllangan. Atrof-muhit muhofazasi borasida ko’pdan-ko’p ilmiy-tadqiqot ishlari, kuzatishlar, nazorat ishlari olib boriladi. Ko’p sonli mutaxassislar ishtirokida o’tkaziladigan mavzuli ekologik ilmiy tadqiqotlar, monitoringlar natijasida butun respublika miqyosida juda ko’p turli axborotlar va ma’lumotlar yig’ildi. Har yilgi mazkur axborotlar yig’indisi katta hajmni tashkil qiladi. Ularni bir tizimga solib foydalanish uchun qulay holatga keltirilsa, ma’muraylatlar bazasi vujudga keladi. Biroq turli muassasalarda bu nodir ahamiyati jihatidan tengi yo’q ma’lumotlar ko’p hollarda foydalanish va ulardan tegishli ilmiy xulosalar chiqarish uchun mazkur soha egalariga yetib bormaydi, qo’sha-qo’sha kulfatlar ortidagi temir sandiqlarda qalashib yeta boradi. Unda ularni yig’ishni nima keragi bor. Ular asosida nafaqat nufuzli ilmiy-texnika hisobotlar yoki oddiy hisobotlar tayyorlash, balki tegishli mavzularda yirik monografiyalar, ilmiy maqolalar va xabarlar yozish, ilmiy hamda keng jamoatchilikka yetkazsh maqsadga muvofiqdir. Ekologiya axborotlarining keng jamoatchilikka yetkazib turishda aynan bir paytda ularning tabiat muhofazasida faol qatnashishlariga jalb qilishda vaqtli matbuot, televideniya, radioning ahamiyati nihoyatda katta. Ekologik matbuotning hududda ekologik vaziyatni xususiyatni aniqlovchi eng maqbul va samarali mezon hisoblanadi. Muvozanatning holatiga qarab tabiatda qanday o’zgarishlar yuz berayotganligi va buning natijasida nimalar sodir bo’lishi mumkinligi to’g’risida oqibatlarini bilib olish mumkin. Tabiatda ekologik muvozanat juda nozik o’zgaruvchan bo’lib, uni tashkil qilgan tabiat unsurlari va majmualari (landshaftlarning morfologik qismlari) ning o’zaro munosabatlari, aloqadorligi va o’zaro ta’sirlari asosiy rivojlantuvchi omillar, kuchlar hisoblanadi. Tabiat kishilik jamiyatining va taraqqiyotining barcha bosqichlarida insonning hayotiy faoliyati uchun zaruriy energiya va moddalar manbai bo’lib xizmat qilib kelmoqda. Shuning uchun ham birinchi bobda koinot, atrof muhit, «birlamchi tabiat» va «ikkilamchi tabiat», ekologiya, ekologik bilim, ekologik ong, ekologik e’tiqod, ekologik munosabat, ekologik faoliyat, ekologik madaniyat, ekologik inqiroz, ijtimoiy ekologiya tushunchalari, tabiat bilan jamiyat o’rtasida vujudga kelgan qarama-qarshiliklar tahlil etildi. jtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aks etdiradi. Jamiyat rivojlanish darajasini belgilab beruvchi siyosiy munosabatlar majmuasi – insonning tabiatni muhofaza qilishdan iborat ekologik faoliyatining asosi hisoblanadi. Bu holda ekologik munosabatlarning nisbatan mustaqilligi

xususiy hodisa emas. Aslida «tabiat-jamiyat-inson» tizimidagi amaliy munosabatlar ekologik siyosat yordamida boshqariladi. Shunga ko’ra, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi amaliy munosabatlarni, ekologik borliqni yalpi ekologik tafakkurdan, ekologik siyosatdan ayricha olib qarash va o’rganish mumkin emas. Zero, ekologik madaniyat shunchaki biror talafotni bartaraf etuvchi tadbir bo’lmasdan, insonlarning davr talabidagi komillik saviyasini belgilovchi bir mezon bo’lib qolmoqda. Ekologik madaniyat «tabiat-jamiyat-inson» tizimidagi qismlarning o’zaro munosabatlarini muvofiqlashtiradigan, insoniyatga borliqdagi barcha mavjudotlarning dialektik bog’liqligini anglatadigan, atrof-muhit musaffoligini saqlashga undaydigan va shu orqali butun koinotni tanazzuldan saqlashga xizmat qiladigan falsafiy-axloqiy kategoriyadir. Muayyan hudud aholisining ko’pligi yoki kamligi har doim ham ekologik holatining yaxshi yoki yomonligini belgilayvermaydi. Chunki ayrim rivojlangan mamlakatlarning aksariyat megapolislaridagi ekologik vaziyat o’sha shaharlarda yashayotgan aholining ekologik madaniyati yuksakligi tufayli barqarordir. Ekologik madaniyat darajasining yuqori yoki pastligi, atrof-muhitga ta’siri o’zini mahalliy, mintaqaviy va global miqyoslarda namoyon qiladi. Xulosa Ekologik madaniyatning shakllanishi-ekologik ong va tushunchasi shakllanishi bo’lib, atroh-muhit bilan chambarchas bog’liq bo’lishdir. Ekologik madaniyatning asosiy g’oyasi-inson va tabiat o’rtasidagi bog’liqlik moddiy tomondan emas, balki ma’naviy jihatdan bo’lishi kerak. Tabiatga zarar bermaslik va global o’ylash har bir insonning burchi bo’lishi lozim. Yerdagi abadiy hayot borishi uchun insoniyat o’zi yashaydigan yerni doimo asrashi, qayta yashartirishi va ekologik madaniyatni rivojlantirishi zarur. Ekologik tarbiya bolaning yoshligida to’g’ri berib borilishi bugungi kunda asosiy vazifaga aylanib bormoqda. Ta’lim muassasalarida berilayotgan ta’lim-tarbiya bilan birgalikda ekologik ongni rivojlantirib borish juda to’g’ri va dolzarb bo’lgan muammoning yechimi deyishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi – Toshkent: O’zbekiston, 2021. – 392 b.
2. Mustafoyev S. Ekologik tarbiya – milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning ajralmas qismi. // Fuqarolik jamiyati. T.: - 2018. № 1. – 7 b.
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “O’zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 434-sonli Qarori.
4. Qodirova F.R., Toshpo’latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika.// 5111800 - Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2019.
5. Марар.О.И.Экологическая культура в современном российском обществе. Автореферат дис.доктора социологических наук. – Москва, 2012. – 41 с.
6. . «Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-107115>.
7. Iqlim bo’yicha xalqaro sammit o’z ishini boshladi.// <https://ittiloot.com>, 2021, 23 aprel
8. Kamoliddin, A., & Iskandar, M. (2020). Geochemical barriers in irrigated soils and the impact of them on plants. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(3), 3082-3089
9. Karimov I.A. —O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent —O’zbekiston, 1997 yil, 315 bet.
10. Dernqolts V. Berlin. 1975. WWW. Neture. P. 213.
11. Ziyomuxamedov B. Ekologiya va ma’naviyat. – T., 1997. – B. 4
12. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “O’zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 434-sonli Qarori.

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

13. Azamova.S.A. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo‘llari va bosqichlari // FarDu Ilmiy xabarlar.2023.- №6-B. 223-227.
14. Azamova.S.A. Ekologik globalashuv sharoitida ekologik tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojning ustuvor vazifaga aylanishi. // NamDu Ilmiy axborotnomasi. 2023.- №5-B. 96-992.
15. Azamova.S.A. Ekologik tarbiya – maktab o‘quvchilari ekologik ongini yuksaltirishning muhim ko‘rsatkichi. // Ilm sarchashmalari. 2024.- №2.- B. 93-96.
16. Azamova.S.A. Ekologik globalashuv sharoitida o‘quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik masalalari. // ADPI Ilmiy xabarnomasi.2024.- №1.- B. 38-41.